



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2024- YIL
YANVAR-MART**



2024- yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida jami **2 032,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **108,9 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor




2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 339

Bino va inshootlar
qurish

464

Fuqarolik obyektlarini
qurish

636

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 98,4 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 54,9 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 93,1 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,0 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 134,5 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 26,1 foiz ulushni va 91,4 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.04.2023- y.	01.04.2024- y.	
Buxoro viloyati	2 479	2 576	103,9
Buxoro shahri	775	767	99,0
Kogon shahri	105	98	93,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	73	74	101,4
Buxoro	182	178	97,8
Vobkent	109	109	100,0
G'ijduvon	150	136	90,7
Kogon	131	127	96,9
Qorako'l	103	108	104,9
Qorovulbozor	56	55	98,2
Peshko'	155	160	103,2
Romitan	228	231	101,3
Jondor	207	201	97,1
Shofirkon	205	195	95,1



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Buxoro sh. (31,4)



Romitan t. (9,5)




Jondor t. (8,2)



Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-mart uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	2 032,8	397,3	1 030,8	604,7
shahar:				
Buxoro sh.	451,9	54,0	260,9	137,0
Kogon sh.	68,5	23,4	27,8	17,3
tuman:				
Olot	127,8	44,7	48,3	34,8
Buxoro	146,1	4,4	86,1	55,6
Vobkent	63,1	1,1	27,8	34,2
G'ijduvon	149,3	1,1	82,7	65,5
Kogon	140,7	23,3	74,0	43,4
Qorako'l	217,1	122,2	66,3	28,6
Qorovulbozor	107,0	77,6	21,2	8,2
Peshko'	122,4	0,0	69,6	52,8
Romitan	198,5	41,4	102,1	55,0
Jondor	122,6	1,8	85,2	35,6
Shofirkon	117,8	2,3	78,8	36,7





2024- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 397,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 19,5 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-mart uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 72,6 % i yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 88,7%), Qorako'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 56,3% i yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 1 197,7 m.) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,7 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,6% ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,7% ni tashkil etgan holda 1 030,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



50,7

2024-yil
yanvar-mart


52,3

2023- yil
yanvar-mart



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jondor tumanida (85,2 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 69,5 %), Shofirkon tumanida (78,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 66,9 %) va Buxoro tumanida (86,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 93,1 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 29,8 % ni tashkil etdi yoki 604,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,6 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 99,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 933,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,9 % va 95,1 % ni tashkil etdi.

2023- yil
yanvar-mart



Davlat mulki

Nodavlat mulki

2024- yil
yanvar-mart



Davlat mulki

Nodavlat mulki

**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2024- yil yanvar-mart oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **62,8 %** i yoki **1 276,6** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

18,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **230,3** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **18,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **493,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **38,6 %** ni tashkil etdi.

38,6 %

43,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **553,0** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **43,3 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	2 032,8	108,9	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	451,9	103,6	22,2
Kogon sh.	68,5	114,9	3,4
<i>tuman:</i>			
Olot	127,8	101,9	6,3
Buxoro	146,1	100,3	7,2
Vobkent	63,1	106,5	3,1
G'ijduvon	149,3	102,3	7,3
Kogon	140,7	100,2	6,9
Qorako'l	217,1	2,3 m.	10,7
Qorovulbozor	107,0	101,1	5,3
Peshko'	122,4	103,4	6,0
Romitan	198,5	100,4	9,8
Jondor	122,6	101,5	6,0
Shofirkon	117,8	101,4	5,8



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da

2023- yil
yanvar-mart

9,3

11,3

49,0

46,0

41,7

42,7

2024- yil
yanvar-mart



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxonalar
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 11,3 % ni tashkil etib, 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga kamayib, 46,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'payib, 42,7 % ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 35,5 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 2,3 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 64,5 % (2,3 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da




2023- yil
yanvar-mart



2024- yil
yanvar-mart

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 % punktga kamaydi va 42,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 58,0 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 % punktga ko'paydi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-mart


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	2 032,8	1 416,3	341,4	275,1
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	451,9	310,7	98,2	43,0
Kogon sh.	68,5	27,9	35,5	5,1
<i>tuman:</i>				
Olot	127,8	71,1	14,1	42,6
Buxoro	146,1	111,7	14,8	19,6
Vobkent	63,1	55,3	4,2	3,6
G'ijduvon	149,3	117,9	8,6	22,8
Kogon	140,7	90,6	34,7	15,4
Qorako'l	217,1	184,5	23,2	9,4
Qorovulbozor	107,0	16,5	7,5	83,0
Peshko'	122,4	104,0	10,3	8,1
Romitan	198,5	152,6	41,3	4,6
Jondor	122,6	84,7	24,1	13,8
Shofirkon	117,8	88,8	24,9	4,1



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-mart



ulushi % da





Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-mart uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	992,9	107,1
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	1 530,3	101,6
Kogon sh.	1 056,8	113,2
<i>tuman:</i>		
Olot	1 223,1	100,3
Buxoro	817,2	98,3
Vobkent	423,9	104,5
G'ijduvon	462,2	100,6
Kogon	1 658,9	98,0
Qorako'l	1 261,4	227,3
Qorovulbozor	5 375,5	99,6
Peshko'	932,4	101,6
Romitan	1 310,6	98,8
Jondor	660,0	99,7
Shofirkon	631,2	100,2



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga
qurilish ishlari
2024- yil yanvar-mart uchun**



Hududlar kesimida 2024- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 5 375,5 ming so'm (yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 99,6 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 1 658,9 ming so'm (yoki 98,0 %), Buxoro shahri – 1 530,3 ming so'm (yoki 101,6 %), Romitan tumani – 1 310,6 ming so'm (yoki 98,8 m.) va Qorako'l tumani – 1 261,4 ming so'm (yoki 2,3 m.) egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**